




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



+998335668868



<https://innoworld.net>

Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



Volume 2 Issue 5 | 2025 |

+99894 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

**"Zanjirband Prometey" asari va uning yunon mifologiyasida tutgan o'рни
Toshpo'latov Zayniddin**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Jo'raboyeva Aziza, Ulasheva Gulbodom

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqola antik davr adabiyotining yirik namoyandasi, "Yunon fojia-navislarining otaxoni" deb e'tirof etilgan Esxil hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Maqolada adibning yunon-fors urushlaridagi ishtiroki, uning ijodiy merosi va bizgacha yetib kelgan nodir asarlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, muallifning eng mashhur asari—"Zanjirband Prometey" fojiasining mifologik asoslari, insoniyat uchun olov keltirgan qahramonning jasorati hamda asarning falsafiy-insoniy mohiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur durdona asarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va milliy madaniyatimizdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Fojia-navis dramaturg, Marafon, Salamin, Plateya, "Duogo'ylar", "Forslar", "Zanjirband Prometey", "Yettovlon Fivga qarshi", "Agamemnon", "Xoeforlar", "Evmenidlar".

V-IV asrlar yunon tarixi chindan ham voqealarga boy, benihoyat mazmundordir. Ana shu ulug' o'zgarishlar munosabati bilan Afina shahar davlatida tug'ilgan muhim-muhim siyosiy va axloqiy muammolar adabiyotga behisob mavzular hadya qilib, unda o'zining in'ikosini kutar turli-tuman masalalarni hal etishda ko'maklashuvini talab qilar edi. Ulug'vor bu hodisalarning endilikda eski lirik qo'shiqlar hajmiga sigdirmasligi shubhasizdir. Jamiyatdagi ziddiyatlarini va to'qnashishlarni hammadan ko'ra muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatli ifoda etishni eplay oladigan birdan-bir adabiy janr—albatta dramaturgiya bo'lgan. Na epik dostonlar va na lirik asarlar bu vazifalarning shubhasiz to'la uddasidan chiqa olmas edi. Harakat, she'riyat va musiqa to'qimasidan tarkib topgan yagona uyg'un shakl kasb etgan drama adabiyoti, poeziyaning imkoniyatlarini juda kengaytirib yuboradi. Uning ommabopligi, ziddiyatlarga boyligi, ta'sirchanligi butun V asr yunon adabiyotida peshqadamlik qilishini ta'minlaydi. Shu tariqa yunon dramaturgiyasining uchta asosiy janri—tragediya, komediya hamda satiralar dramasi paydo bo'ladi. Yunon tragediyasining shakllanishida tutgan o'рни, o'zining poetik mahorati va asarlarida ifoda etilgan ajoyib zamonaviy g'oyalari bilan Esxil butun antik dunyo adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Esxil va uning "Zanjirband Prometey" fojiasi

Bizga ma'lum bo'lgan qadimgi yunon dramaturglari ichida birinchisi, yunon fojia-navislarining otaxoni Esxildir. U taxminan eramizdan avvalgi 525-yilda yirik zamindor oilasida dunyoga keldi. Bu yillar yunonlarning fors istilochilariga qarshi mustaqillik uchun kurash olib borgan davri edi.

Dastlab yunonlar 490-yilda Marafon yonida fors qo'shinlarini, 483-yilda esa Salamin oroli yaqinida ularning harbiy-dengiz flotini mag'lubiyatga uchratadilar. Nihoyat, 479-yilda yunon-fors urushi yunonlarning Plateya

yaqinidagi g' alabasi bilan tugaydi. Esxil bu janglarning har uchallasida ham ishtirok etadi.

Keyinchalik o'z mamlakatidagi mavjud tartiblardan norozi bo'lgan Esxil Afinani tark etib, Sitsiliyada qaror topadi va 456-yili o'sha joyda vafot etadi.

Qadimgi adabiyotshunoslar Esxilning o'nlab pyesalari borligini zikr etsalar-da, lekin bizgacha yetib kelganlari yettita:

- "Duogo'ylar"
- "Forslar"
- "Zanjirband Prometey"
- "Yettovlon Fivga qarshi"
- "Agamemnon"
- "Xoeforlar"
- "Evmenidlar"

Bular orasida eng mashhuri "Zanjirband Prometey"dir. U Esxilning Prometey haqidagi dramatik trilogiyasining avvalgi qismi xolos, degan taxmin bor. Chunki bizga Esxilning "Ozod etilgan Prometey" asari ham ma'lum, lekin undan faqat ayrim parchalarigina yetib kelgan.

Asar yunon mifologiyasiga asoslangan. Prometey — titanlardan biri bo'lib, u Zevsning irodasiga qarshi chiqadi va xudolardan olovni o'g'irlab, insonlarga beradi.

Jazo: Zevs Prometeyni itoatsizligi uchun jazolaydi. Uni dunyoning chekkasidagi Kavkaz qoyalariga zanjirband qilishni buyuradi.

Ijrochilar: Jazoni amalga oshirish uchun Kuch va Zo'ravonlik (Zevsning xizmatkorlari) hamda temirchi xudo Gefest yuboriladi. Gefest Prometeyga achinsa-da, Zevsning buyrug'ini bajarishga majbur bo'ladi.

Muloqotlar: Asar davomida zanjirband Prometeyning oldiga okeanidalar (okean qizlari), Okeanning o'zi va Zevsning jabrdiyidasi bo'lgan Io keladi. Prometey ular bilan suhbatda o'zining haq ekanligini va Zevsning istibdodi vaqtinchalik ekanini ta'kidlaydi.

Insonparvarlik: U insonlarni yovvoyilikdan qutqarish, ularga hunar, yozuv va hisob-kitobni o'rgatish uchun o'zini qurbon qiladi.

Bukilmas iroda: Zevs unga qanchalik azob bermasin, Prometey tizzalab kechirim so'ramaydi.

Kelajakni ko'ra olish: Prometey "bashoratchi" ma'nosini anglatadi. U Zevsning taxtdan qanday qulashini biladi, lekin bu sirni dushmaniga ochmaydi. Esxil bu asar orqali o'z davrining muhim ijtimoiy va falsafiy masalalarini ko'targan:

1. Adolat va Istibdod to'qnashuvi: Zevs — yangi, shafqatsiz va qonunlarni tan olmaydigan diktator timsoli. Prometey esa ma'rifat va haqiqat himoyachisi.
2. Bilimning kuchi: Olov bu yerda shunchaki jismoniy olov emas, balki bilim, fan va madaniyat ramzidir.
3. Taqdir va Erkinlik: Hatto xudolar ham taqdirdan ustun emasligi asarda bot-bot takrorlanadi.

"Zanjirband Prometey" qadimgi yunon afsonalari asosida yaratilgan. Ularda hikoya qilinishicha, Prometey suv va tuproqdan dastlabki odamlarni bunyod etgan. Ma'buda Afina esa jonbaxsh nafasi bilan ularga hayot bag' ishlagan. Lekin ma'budlar hukmdori Zevs odamlarni butunlay yo'qotib yuborishga qasd qiladi: odamlardan olovni yashirib, ularni sovuqda, zulmatda tutadi. Prometey Zevsdan olovni o'g' irlab, odamlarga keltirib beradi. Shundan boshlab yerda yangi hayot quloch yozadi, endi odam o'zini erkin va qudratli his etadi. Prometeyning bu "shakkokligi"dan g' azablangan Zevs uni qoyaga zanjirband qilishni buyuradi. To Gerakl kelib ozod etmaguncha, zanjirband Prometeyga Zevsning qanotli iti — jez tumshuqli burgut mislsiz azoblar beradi, har kuni uning jigarini cho'qib, qonini ichadi...

Esxilning "Zanjirband Prometey"i hamon inson tafakkurining mangu durdonasi, qadimiy yunon fojiaavisining genial asari sifatida yashab kelmoqda. Yosh shoir Asqar Qosimov asarning falsafiy hamda insoniy mohiyatini o'zbek kitobxoniga to'la yetkazib berishga intilgan. Bu asarning o'zbekchaga tarjima qilinishi adabiy-madaniy hayotimizda muhim voqea bo'lishi shak-shubhasizdir.

Asar qahramonlari:

- Hukmdorlik va Zo'rlik — Zevsning xohish va irodasini bajaruvchilar.
- Gefest — olov ma'budi, temirchi.
- Prometey — titan, ma'bud, odamlarning homiysi va va'lan'emati.
- Okeanidalar xori — Okeanning qizlari.
- Okean — titan, bahr (dengiz) ma'budi.
- Io — Argos shohi Inaxning qizi.
- Germes — ma'bud, Zevsning xabarchisi.

X U L O S A. Prometey afsonasi mavzusida yozilgan dostonlarda, musiqa asarlarida zulm, jaholat va tutqinlikka qarshi xalq nafratini g'azab va isyonini ifoda qilganlar. Prometey obrazi ozodlikning o'lmas dahosi va ulug' jarchisi bo'lib, insoniyat tarixida barhayot qoladi. Esxil "fojia otasi" sifatida asarda juda balandparvoz, ulug'vor va hissiyotga boy tildan foydalangan. Dramadagi xor (okeanidalar) voqealarga hissiy tus beradi va qahramonning dardiga sherik bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Antik adabiyot *Qayumov, O.* – Toshkent: O'qituvchi, 1975. (Ushbu darslikda Esxil ijodi va "Zanjirband Prometey" tragediyasining kompozitsion qurilishi batafsil yoritilgan).
2. Sharq va G' arb *Sulaymonova, F.* – Toshkent: O'zbekiston, 1997. (Prometey obrazining Sharq va G' arb madaniyatidagi tutgan o'rni haqida).
3. Mifologiya va badiiy tafakkur *Eshonqul, J.* – Toshkent: Fan, 2011. (Prometey afsonasining mifologik ildizlari tahlili).
4. Qadimgi adabiyot *Losev, A. F.-M.*: ma'rifat, 1986. (Losev Prometey obrazini "titanizm" va inson irodasining ramzi sifatida tahlil qilgan).
5. Qadimgi yunon adabiyoti tarixi *Radzig, S. I.-M.*: Oliy maktab, 1982. (Esxil tragediyalarining janr xususiyatlari va dramatik qurilishi haqida eng ishonchli manbalardan biri).
6. Esxil *Yarxo, V. N.-M.*: badiiy adabiyot davlat nashriyoti, 1958. (Esxil hayoti va ijodiga bag' ishlangan eng yirik monografiyalardan biri).

